

JOY NOMLARI YORDAMIDA QADIMIY KARVON YO‘LLARINI ANIQLASH IMKONIYATLARI HAQIDA

(Jizzax viloyati misolida)

K.M.Xakimov – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent*

M.R.Usmonov – *geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
Jizzax davlat pedagogika universiteti

J.B.Abdiramanov – *katta o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

О ВОЗМОЖНОСТЯХ ВЫЯВЛЕНИЯ ДРЕВНИХ КАРАВАННЫХ ПУТЕЙ С ПОМОЩЬЮ НАЗВАНИЙ МЕСТ

(на примере Джизакской области)

К.М.Хакимов – *кандидат географических наук, доцент*

М.Р.Усманов – *доктор философии географических наук, доцент*
Джизакский государственный педагогический университет

Ж.Б.Абдираманов – *старший преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

ANCIENT CARAVAN ROUTES WITH THE HELP OF PLACE NAMES ABOUT DETECTION CAPABILITIES

(using the example of Jizzakh region)

K.M.Khakimov – *Candidate of Geographical Sciences, Associate Professor*

M.R.Usmanov – *Doctor of Philosophy in Geographical Sciences, Associate Professor*
Jizzakh State Pedagogical University

J.B.Abdiramanov – *senior lecturer*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: geografik nom, toponimiya, toponimika, karvon yo‘llari, hudud, hududiylik, milliy qadriyat.

Rezyume. Maqolada mamlakatimiz hududida qadimiy karvon yo‘llari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan va o‘sha davr tarixiy voqea-hodisalarini o‘zida aks etgan toponimlar aniq misollar yordamida tahlil qilingan. O‘zbekiston “Buyuk ipak yo‘li”ning chorrahasida joylashganligi, uning toponimiyasi tarkibida karvon yo‘llari bilan bog‘liq joy nomlari alohida o‘rin tutadi. Albatta, Jizzax viloyati toponimiyasi ham bundan mustasno emas. Qadimiy karvon yo‘llari atrofida paydo bo‘lgan geografik nomlar yordamida nafaqat o‘z davrida mintaqa rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan tarixiy karvon yo‘llari, balki o‘sha hududda yashovchi yoki qachonlardir yashagan xalqlarning tili, urf-odatlar, milliy qadriyatlari va etnomadaniy belgilari haqida ham qimmatli ma‘lumotlarni aniqlash mumkin. Shuning uchun, qadimiy karvon yo‘llari bilan bog‘liq joy nomlarini o‘rganish va toponimik tadqiqotlar yordamida ularni ilmiy etimologiyasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ключевые слова: топонимика, топонимия, географическое названия, этимология, караванные пути, территориальность, исторические пласты, национальные ценности.

Резюме. В статье на конкретных примерах анализируются топонимы, связанные с древними караванными путями и отражающие исторические события того периода на примере Джизакской области. В связи с тем, что территория нынешнего Узбекистана расположена на перекрёстке “Великого Шёлкового пути”, топонимы, связанные с караванными путями, занимают особое место в топонимии региона. В этом смысле объект исследования данной статьи топонимия Джизакской области не является исключением. Кроме того, с помощью географических названий которые появились на древних караванных путях, можно выявить не только маршрут движения караванов, оказавшие в своё время положительное влияние на развитие региона, но и получить ценную информацию о языке, обычаях, национальных ценностях и этнокультурных особенностях народов, проживающих или проживавших на этой территории. Поэтому важно изучать топонимы, связанные с древними караванными путями, и определять их научную этимологию посредством топонимических исследований.

Key words: toponymy, geographical names, etymology, caravan routes, territoriality, historical layers, national values.

Summary. The article analyzes toponyms associated with ancient caravan routes and reflecting historical events of that period using specific examples from the Jizzakh region. Due to the fact that the territory of present-day Uzbekistan is located at the crossroads of the “Great Silk Road”, toponyms associated with caravan routes occupy a special place in the toponymy of the region. In this sense, the object of study of this article, the toponymy of the Jizzakh region, is no exception. In addition, with the help of geographical names that appeared on ancient caravan routes, it is possible to identify not only the route of caravans that had a positive impact on the development of the region at the time, but also to obtain valuable information about the language, customs, national values and ethnocultural characteristics of the peoples living or who lived in this territory. It is therefore important to study toponyms associated with ancient caravan routes and determine their scientific etymology through toponymic research.

Kirish. Tarixiylik maqomiga ega bo'lgan joy nomlarida geografik obyektning ixcham tarixi mujassam. Ko'pincha, joy nomlarining shakllanishi jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq va ular yaratgan xalq milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadimiy tarixga ega mamlakatimizning toponimiyasi tarkibida karvon yo'llari bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari ko'p uchraydi. Albatta, savdo-sotiq bilan bog'liq joy nomlari va ularning etimologiyasi Jizzax viloyati toponimiyasi ham bundan mustasno emas. Geografik nomlar yordamida qadimiy karvon yo'llarini, o'sha hududda yashovchi yoki qachonlardir yashagan xalqlarning tili, urf-odatlarini, milliy qadriyatlari va etnomadaniy belgilari kabi qimmatli ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Binobarin, qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlarini o'rganish va toponimik tadqiqotlar yordamida ularni ilmiy etimologiyasini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning o'rganilganligi. Qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq toponimlar uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan va turli tillarga mansub. Shuning uchun, ular hozirgi lingvistik chegaralarni tan olmaydi. Bundan tashqari, bu tur joy nomlarining paydo bo'lishida turli omillar (siyosiy, lisoniy, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, etnik) asos bo'lgan. Iqtisodiy-ijtimoiy omillar, jumladan, savdo-sotiq bilan bog'liq joy nomlari va ularning etimologiyasi kabi muammolar hozirgacha nisbatan kam o'rganilgan va bu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Mazkur tadqiqot ishida nomshunos olimlar E.Murzayev, H.Hasanov, S.Qoraev, M.Mirakmalov, K.Xakimov, K.Seyitniyozov ilmiy ishlaridan foydalanildi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi Jizzax viloyati hududagi qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq geografik nomlarni aniqlash va ularni shakllanishiga asos bo'lgan motivlarni toponimik tadqiqotlar yordamida tahlil qilishdan iborat. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun, quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan: 1) toponimik tadqiqotlar yordamida mintaqadagi qadimiy karvon yo'llari negizida shakllangan joy nomlarini aniqlash. 2) milliy qadriyatlarimizning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan bu tur joy nomlarini paydo bo'lishida asos bo'lgan turli omillar (siyosiy, lisoniy, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, etnik) o'sha davr voqealigi bilan qiyosiy tahlil qilish. 3) mintaqadagi qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlarini ilmiy etimologiyasini aniqlash va ular yordamida Jizzax viloyat hududidan o'tgan karvon yo'llari karta-sxemasini yaratish.


Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning ta'бири bilan aytganda, "kim nom ma'nosini yaxshi anglasa, u joyni ham yaxshi biladi" [1]. Darhaqiqat, har bir geografik nomning o'ziga xos "yuk"i bor, zero unda aniq

ma'noga ega bo'lgan turlicha tarixiy, lisoniy, geografik ma'lumotlar mujassam, shu sababdan toponimga tarixiylik nuqtaiy nazardan to'g'ri yondashib, uning hamma tarkibiy qismlari to'g'ri tahlil qilinsagina izoh ishonarli bo'ladi.

Taniqli geograf-nomshunos olim H.Hasanov, "joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo'llari, etnik guruhlarining tarqalish areali, qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning xosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduqlar bor-yo'qligi, joyning iqlimiy xususiyatlari, kasb-hunar turlari, tarixiy voqealar va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olish mumkin, bularning hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir" deb ta'kidlagan [5].

Binobarin, geografik nomlarning ko'pgina fazilatlariga qatoriga ular yordamida qadimiy karvon yo'llarini aniqlash imkonini borligini ham kiritish mumkin. Mazkur tadqiqot ishida Jizzax viloyati toponimiyasi tarkibidagi hozirgacha aniqlangan va qadimiy karvon yo'llari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ayrim joy nomlari tarixiylik nuqtaiy nazardan tahlil qilib, ular yordamida viloyat hududidan o'tgan qadimiy karvon yo'llarini xarita-chizmada ko'rsatib berishga harakat qilindi.

Жиззах вилояти карвон йўларида акс этган жой номлари.



Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Jizzaxning qulay geografik o'rni o'rta asrlarda Mo'g'uliston, Xitoy va Sharqiy Turkistonni Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Buxoro, Samarqand, Shosh, Tarozi bilan bog'laydigan karvon yo'llarining bir tarmog'i ushbu hududdan o'tishida muhim ahamiyat kasb etgan [4]. Shu sababdan, viloyat toponimiyasi tarkibida bevosita qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlari ko'p

uchraydi, ular qatoriga Xayrobod, Ravot, Yom, Bekat, Sardoba, Savot, Sarbozor, Ko‘hnabozor, Bozorjoy, Chimqo‘rg‘on, Qarovultepa, Qaliya, Jo‘langar kabi aholi punktlari nomlarini kiritish mumkin.

Qadimiy karvon yo‘llaridan darak beruvchi bunday toponimlar hozirgacha asl holida yoki qisman o‘zgarishlar bilan saqlanib qolgan. Masalaga oydinlik kiritish maqsadida viloyat hududidagi qadimiy karvon yo‘llarida joylashgan ayrim oykonimlarni sharhlash lozim deb hisobladik. Ma‘lumki, oykonimlar barcha toponimlar orasida tarixiy va lisoniy jihatdan eng qimmatli yodgorliklar bo‘lganligi sababli, tarixiy manbalarda ular ko‘proq qayd etilgan. Masalan, ana shunday nomi bevosita karvon yo‘llari bilan bog‘liq aholi punktlaridan biri viloyatning Yangiobod tumanidagi Savot qishlog‘idir.

Karvon yo‘lida joylashgan Sovot tarixiy qishloq haqidagi ilk ma‘lumotlar arab geograflari Istaxriy, Muqaddasiy, Ibn Xurdodbeh asarlarida uchraydi. Akademik A.R.Muhammadjonov qishloqning geografik o‘rni haqida shunday yozadi, shu joydan, ya‘ni Ustrushonaning Sebat rustoqidan Buyuk Ipak yo‘li uch tarmoqqa (Shosh, Farg‘ona, Ustrushona) bo‘linib ketgan. Ushbu yo‘nalishlarning har birida bittadan rabot-karvonsaroylar mavjud bo‘lgan va Sebat (se - uch, bat - rabotning qisqargan shakli) uch rabot ma‘nosini ifodalaydi. O‘rta asr arab geograflari Muqaddasiy, Ibn Havqal, Istaxriy asarlarida ham qishloq to‘g‘risida ma‘lumotlar bor va uni katta karvon yo‘li ustida joylashganligi ta‘kidlangan. Qulay geografik o‘rniga ega bo‘lgan Sebatda o‘rta asrlarda Ustrushonadagi yagona mashhur yopiq bozor (tim) ham bo‘lgan [3].

Jizzax viloyatidagi qadimiy karvon yo‘llarida joylashgan aholi punktlari nomlarining tahlilidan ma‘lum bo‘ladiki, viloyat hududi “Buyuk Ipak yo‘li” ni muhim chorrahalardan birida joylashgan. Karvon yo‘llari Jizzax vohasini boshqa Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona Ustrushona kabi savdo-sotiq rivojlangan markazlar bilan bog‘lab turgan. Shuning uchun, karvonlarga qulaylik yaratish maqsadida ushbu hududda ko‘plab karvonsaroy, ravotlar, sardoba, bozor (tim), masjidlar qurilgan.

Masalan, keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar tufayli Nurota tizmasining shimoliy etagidan Mirzacho‘l orqali karvon yo‘llari o‘tganligi va ularning atrofidagi aholi manzilgohlarida ravot-karvonsaroylar, sardobalar qurilganligi isbot qilingan. Xorazm va Buxorodan kelib Shosh va Farg‘onaga tomon boradigan karvonlar uchun eng qisqa yo‘l Qizilqumning janubiy sarhadlari bilan Nurota tog‘larining shimoliy etagi oralig‘ida, ya‘ni hozirgi Forish tumani hududidan o‘tadigan karvon yo‘li bo‘lgan. Mirzacho‘l orqali o‘tadigan bu karvon yo‘li nihoyatda quruq, suvsiz bo‘lishiga qaramay, yo‘li qisqa bo‘lganligi tufayli o‘rta asrlarda serqatnov hisoblangan.

Mutaxassislarning aniqlashicha, hozirgi Forish tumanining Kaltepa degan joyida karvonsaroy va sardoba bo‘lgan. Ular Mirzacho‘l orqali harakat qiladigan karvonlar uchun dam olib suv va oziq-ovqat g‘amlash imkonini bergan. Karvon yo‘li Chimqo‘rg‘onda ikkiga bo‘lingan, biri Sangzor (Qli) daryosi yoqalab janubi-sharqqa Jizzaxga, ikkinchisi shimoli-sharqqa qarab Toshkentga borgan. Mirzacho‘l orqali Toshkentga boradigan bu karvon yo‘lida bir necha sardobalar qurilgan. Ayrim sardobalar buzilib ketgan, xarobasi qolgan. Ulardan faqat bittasi hozirgi Sirdaryo viloyatning Sardoba tumani hududida saqlangan.

Sardoba - suvi kam joylarda suvning ko‘p bug‘lanib ketishiga va ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun g‘ishtdan maxsus qurilgan gidrotexnik inshoot. Sardobalar ko‘pincha qadimiy karvon yo‘llarida qurilgan. Usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagiga tosh terilgan, o‘rtasida suv yerga shimilib ketasligi uchun ba‘zilarini tagiga g‘isht yotqizilgan hovuzi bo‘lgan. Sardoba gumbazida uch tomondan ventilyatsiya darchasi, yomg‘ir suvini to‘plash uchun ustida mo‘risi va suvdan foydalanish uchun odam kirib chiqadigan eshigi bo‘lgan. Sardobalarning suvi tiniq va chuchuk bo‘lib, uzoq muddat ichishga yaroqli bo‘lgan. Akademik M.E.Masson ba‘zi bir sardobalarning suvi uch yilgacha ichishga yaroqli bo‘lganligini aytadi [1]. Sardoba so‘zi tojik tilida sard -“sovuq, muzdek”, ob -“suv” ma‘nosini bildiradi.

Viloyat toponimiyasi tarkibidagi Sarbozor, Bozorjoy, Ko‘hnabozor kabi aholi punktlari nomlari ham bevosita karvon yo‘llarida tashkil etilgan karvon savdosi, bozorlar bilan bog‘liq. Masalan, Forish tumanida Ko‘hnabozor nomli oykonim mavjud. Mutaxassislarning fikricha, o‘rta asrlarda hozirgi qishloq hududida katta bozor bo‘lgan, unda chorva va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ko‘tarasiga sotilgan hamda qo‘shni mamlakatlardagi narx-navoni bilish mumkin bo‘lgan. Bozorga qo‘shni mamlakatlardan ham (Afg‘oniston, Xitoy, Eron) savdogarlar kelib turgan [8].

Hozirda viloyatning Zarbdor, Forish, G‘allaorol va Sharof Rashidov tumanlari hududida Ravot degan qishloqlar bor. Bu geografik termin O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘oniston hududida ham keng tarqalgan, chunki o‘rta asrlarda karvon yo‘llari yoqasida qurilgan va karvon to‘xtab o‘tadigan joy, mehmonxona ravot deb atalgan. Ayrim tarixiy manbalarda Ravot – o‘rta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi, dastlab (islom dini tarqala boshlagan davrda) g‘oziylarga mo‘ljallab qurilgan maxsus bino bo‘lgan degan fikr ham mavjud.

Aslida mutaxassislar orasida Movarounnahrda ravotlar aynan arablar tamonidan barpo etilganligi to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Bizningcha, ravotlar arablar istilosidan oldin ham karvon yo‘llari yoqasida

qurilgan va karvon to‘xtab, tunab o‘tadigan joy sifatida xizmat qilgan, keyinchalik islom dini tarqala boshlagan davrda arablar undan qarorgoh sifatida foydalangan bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Qadimiy karvon yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lgan geografik nomlarining paydo bo‘lishi va geografik obyektning nomlashga asos bo‘lgan motivlar, nomshunos olimlarning asarlari hamda ayrim tarixiy manbalar yordamida tahlil qilindi va quyidagi xulosalarni bayon qilishga asos bo‘ldi:

- milliy qadriyatlarimizning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan joy nomlari, bebaho ma‘naviy meros sifatida yoshlarni yetuk, barkamol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

- o‘tmishning ma‘noli guvohlari bo‘lgan joy nomlariga hududiylik va tarixiylik xos. Joy nomlari

madaniy, ma‘naviy va tarixiy yodgorliklar orasida alohida davrlarning tirik sadosi sifatida bebaho xazinadir.

- har bir tarixiy davr ishlab chiqarish tarzi, xo‘jalik faoliyati va boshqa siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga tayanib joy nomlari majmuini yaratgan va ularda jamiyati taraqqiyotidagi zamon ruhi, xalqning turmushi va madaniyati bilan bog‘liq turli xil tarixiy voqea -hodisalar muhrlangan bo‘ladi.

- qadimiy karvon yo‘llari bilan bog‘liq joy nomlarining ilmiy etimologiyasini aniqlash, nom yaratilgan tarixiy davrni, jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog‘liq.

- joy nomlari yordamida qadimiy karvon yo‘llarini aniqlash, turizm turlarini rivojlantirish va yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Ташкент: издание Камитета наук при СНК УзССР, 1935.
2. Муҳаммаджонов А.Р. Робот атамаси этимологияси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1995. № 2, 43-45-б.
3. Миракмалов М.Т. Географияда топонимика. – Ташкент: 2011.
4. Мурзаев Э.М. География в названиях. – Москва: «Наука», 1982.
5. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: «Мысль», 1974.
6. Оға Бургутли. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. – Ташкент: «Фан», 2006.
7. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2005.
8. Ҳайдаров Ҳ. Жиззах вилояти тарихи. – Ташкент: «Меҳнат», 1997.
9. Ҳақимов Қ.М. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах: «Сангзор», 2014.
10. Ҳасанов Ҳ. Танланган асарлар. – Ташкент: «VNESHINVESTPROM», 2019.
11. Hakimov Q.M., Mirakmalov M.T. Toponimika. Darslik. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020.
12. Hakimov Q.M. Toponimika. Darslik. – Toshkent: «Mumtoz so‘z», 2016.